DUNYONING YANGI SIYOSIY TARTIBOTI SHAROITIDA DINLARNING O‘RNI

Alijonov Muslimbek
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
v.b.dotsenti, t.f.f.d., PhD, Email: muslimbek@uwed.uz,
Axmatkulova Vaziraxon
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti
“Siyosatshunoslik” yo‘nalishi I bosqich talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy global siyosiy tizim — yangi dunyo tartibotida dinlarning tutgan o‘rni har tomonlama tahlil etiladi. Ayniqsa, bugungi kunda dunyo miqyosida yuzaga kelayotgan murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy inqirozlar sharoitida jahon dinlarining insoniyat hayotidagi barqarorlik, tinchlik va ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyati chuqur tadqiq etilgan. Tezisda diniy qadriyatlarning jamiyat taraqqiyotiga, xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga hamda global muammolar yechimida tutgan o‘rni ilmiy-nazariy asosda tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi siyosiy tartibot, din, globalizatsiya, geosiyosat, ma’naviyat, bag‘rikenglik, xalqaro munosabatlar, islom, sivilizatsiya, ijtimoiy-ma’naviy muammolar.*

Annotation: *This thesis provides a comprehensive analysis of the role of religions in the modern global political system — the new world order. It particularly explores how, in today’s complex social, economic, and moral crises, world religions play a crucial role in ensuring stability, peace, and spiritual harmony in human life. The thesis scientifically and theoretically*

examines the influence of religious values on social development, the strengthening of international cooperation, and their contribution to solving global challenges.

Keywords: *New world order, religion, globalization, geopolitics, spirituality, tolerance, international relations, Islam, civilization.*

Аннотация: *В данной тезис всесторонне анализируется роль религий в современном глобальном политическом устройстве — новом мировом порядке. Особое внимание уделено тому, как в условиях современных сложных социальных, экономических и духовных кризисов мировые религии играют важную роль в обеспечении стабильности, мира и духовной гармонии в жизни человечества. В тезис научно и теоретически рассматривается влияние религиозных ценностей на развитие общества, укрепление международного сотрудничества и решение глобальных проблем.*

Ключевые слова: *Новый мировой порядок, религия, глобализация, геополитика, духовность, толерантность, международные отношения, ислам, цивилизация, социально-духовные проблемы.*

Bugungi globallashuv davrida “din va siyosatning o‘zaro aloqasi” masalasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda diniy omil nafaqat ijtimoiy hayotning, balki siyosiy jarayonlarning ham tarkibiy qismiga aylanmoqda. Dinni siyosiy vositaga aylantirish yoki siyosatni butunlay dinsizlashtirish kabi yondashuvlar tufayli ko‘plab muammolar paydo bo‘lyapti. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviy musulmon davlatlari dinning siyosatdagi o‘rnini va ular o‘rtasidagi muvozanatni qayta talqin etmoqda. Quyida musulmon

Yangi siyosiy tartibotda din siyosiy legitimlikni ta’minlash, milliy o‘zlikni saqlash, mafkuraviy birlashuv, hatto xalqaro hamkorlik vositasi sifatida qayta qadrlanmoqda. Bu holat diniy qadriyatlarning kuchayishi bilan bir qatorda, ayrim hollarda siyosiy manipulyatsiya yoki ekstremistik oqimlar shaklida namoyon bo‘lish xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli, zamonaviy siyosiy tizimda dinning o‘rni masalasi chuqur tahlilni talab etadi.

XXI asrda dunyo siyosati faqatgina iqtisodiy yoki harbiy kuch bilan belgilanmayapti. Shuningdek, inson kapitali, ma’naviyat va diniy qadriyatlar xalqaro siyosatning muhim qismi bo‘lib qoldi. Masalan, Vatikan dunyoning eng kichik davlati bo‘lsa-da, uning siyosiy ta’siri ko‘plab global masalalarda seziladi. Shuningdek, Islom hamkorlik tashkiloti, Dunyo cherkovlar kengashi, Buddist forumi kabi diniy asosdagi xalqaro institutlar mintaqaviy barqarorlik va tinchlik jarayonlarida faol ishtirok etmoqda.

Ba’zi siyosatshunoslar masalan, S. Xantington o‘zining “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi” asarida: “XXI asrda ideologiyalar emas, balki sivilizatsiyalar, ya’ni din asosidagi madaniy birliklar o‘rtasidagi farqlar global siyosatni belgilaydi, deb ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, din — siyosiy jarayonlarning tashqi ko‘rinishidangina iborat emas, balki u milliy va madaniy o‘zlikning ildizidir, “[1] – deydi.

Har bir davlat o‘z siyosiy tizimini legitimlashtirish uchun ma’naviy asosga ehtiyoj sezadi. Masalan, Saudiya Arabistonida davlat diniy me’yorlarga tayangan holda siyosat yuritadi; Isroil yahudiylik qadriyatlari asosida milliy birlikni mustahkamlaydi; Hindistonda hinduizm siyosiy birlikning asosiy qismiga aylangan.

Ayni paytda, O‘zbekiston kabi dunyoviy, lekin diniy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan davlatlar uchun din — siyosiy barqarorlik va ijtimoiy

[1] Hantington S. “Sivilizatsiyalar to‘qnashuvi va yangi dunyo tartiboti”. “Yangi asr avlodi”. 2023-yil.412-b.

birdamlikning muhim omilidir. O‘zbekiston tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qachonki davlat va din o‘rtasida sog‘lom masofa bo‘lsa, din millatning ma’naviy poydevorini mustahkamlaydi, ammo siyosiy manipulyatsiya vositasiga aylanmaydi.

Globalizatsiya davrida madaniyatlar aralashuvi, migratsiya, internet orqali axborot oqimining kuchayishi natijasida dinlararo muloqot dolzarb masalaga aylandi. BMT, YuNESKO, hamda “Dinlararo bag‘rikenglik haftaligi” kabi tashabbuslar turli diniy konfessiyalar o‘rtasidagi o‘zaro hurmatni mustahkamlashga qaratilgan. Masalan, Qozog‘istonda o‘tkaziladigan “Dinlararo muloqot kongressi” xalqaro darajada tinchlikni mustahkamlashda muhim platformaga aylandi. Shu bilan birga, dinlararo muloqot faqat diniy masala emas, balki diplomatiya, siyosiy barqarorlik va inson huquqlari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Afsuski, ayrim hollarda din siyosiy maqsadlarda suiiste’mol qilinadi. Ekstremistik guruhlar diniy shiorlar ostida zo‘ravonlikni oqlashga urinadi. “Islom davlati” (IShID) yoki boshqa radikal oqimlar diniy qadriyatlarni siyosiy hokimiyat uchun vositaga aylantirgani bu.ning yorqin misolidir. Ushbu holatlar dinning asl mohiyatiga zid. Chunki har bir dinning markazida tinchlik, adolat va insonparvarlik g‘oyalari yotadi. Shu sababli, dinni siyosiy manipulyatsiyadan himoya qilish – zamonaviy siyosatning eng muhim vazifalaridan biridir.

Dinning eng yuksak ro‘li — tinchlikni targ‘ib qilishdadir. Papa Fransisk, Turkiya prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘on, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kabi yetakchilar ko‘p marotaba xalqaro minbarlarda dinlararo muloqotni mustahkamlash, diniy bag‘rikenglikni kengaytirish tashabbuslarini ilgari surganlar. BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida mamlakatimiz prezidenti “Jahon yoshlarining tinchlik sari harakati” tashabbusini va uning

qarorgohini O‘zbekistonda joylashtirish taklifini ilgari surdi. Bu esa o‘z navbatida, turli din vakillari bo‘lgan yoshlarni o‘zaro hurmat, tushunish va hamjihatlik ruhida birlashtiruvchi muhim qadam bo‘ldi.

O‘zbekiston tajribasida “Bag‘rikenglik va diniy erkinlik to‘g‘risidagi qonun” diniy barqarorlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Diniy tashkilotlarga erkinlik berilgan, biroq ularning siyosatga aralashuvi cheklangan — bu demokratik tamoyillarni saqlagan holda, ma’naviy uyg‘onishni rag‘batlantiradi.

Fikrimizcha, dinning siyosatda tutgan eng muhim o‘rni — insonni ruhiy va axloqiy jihatdan tarbiyalashdadir. Siyosiy qarorlar va xalqaro aloqalar ham ma’naviy mas’uliyat kasb etsa, barqaror bo‘ladi. Dinsiz siyosat — ma’naviyatsiz siyosatdir, lekin din siyosatdan ustun bo‘lishi ham xavfli. Shu muvozanatni saqlash — yangi siyosiy tartibotning eng muhim sinovidir.

So‘nggi yillarda “diniy diplomatiya” atamasi keng qo‘llanila boshladi. Bu — din yetakchilari, diniy tashkilotlar va davlatlar o‘rtasidagi muloqot orqali tinchlik va hamkorlikni ta’minlash jarayonidir. Masalan, Islom olamining yetakchilari G‘arb bilan muloqotni kuchaytirish orqali islomofobiya muammosiga qarshi kurashmoqda. Vatikanning diplomatik faoliyati esa Yaqin Sharqda tinchlik o‘rnatish, iqlim o‘zgarishi va ijtimoiy adolat masalalarida muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bu jarayonlar diniy qadriyatlarning siyosatdagi o‘rni faqat ichki masala emas, balki global xavfsizlik va taraqqiyotning tarkibiy qismiga aylanganini ko‘rsatadi. Yangi siyosiy tartibot davrida dinlar insoniyat uchun faqat ruhiy tayanch emas, balki siyosiy barqarorlik va ijtimoiy uyg‘unlikning asosiy omiliga aylangan. Ammo bu jarayon ikki yoqlama: din tinchlikni targ‘ib qilishi mumkin, lekin noto‘g‘ri talqin qilinganda nizo manbaiga aylanishi ham ayni haqiqat.

Shuning uchun, siyosat va din o‘rtasidagi muvozanatni saqlash, diniy erkinlik va bag‘rikenglikni ta’minlash, ekstremizmga qarshi mafkuraviy immunitet yaratish har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bo‘lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, XXI asr insoniyat oldiga muhim va mas’uliyatli vazifani qo‘ymoqda: siyosatning markazida kuch yoki manfaat emas, balki axloq, ma’naviyat va insonparvarlik qadriyatlari turishi zarur. Chunki siyosat ma’naviy mezonlardan holi bo‘lsa, adolat susayadi, ishonch yo‘qoladi, jamiyatda nizolar kuchayadi. Faqat insoniylik, adolat va axloqiy tamoyillar asosida qurilgan siyosatgina haqiqiy taraqqiyotga olib keladi. Shunda din va siyosat bir-birini to‘ldiruvchi ikki qudratga aylanadi, insoniyat esa o‘zaro hurmat, tinchlik va barqarorlik sari intiladi.